

№7 – Amaliy mashg'ulot



Zamonaviy taqdimot yaratuvchi dasturlar.







Ishning maqsadi:

Microsoft office 2016 dasturining ilova paketi Power Point taqdimot muharriridan foydalanish imkoniyatlari bilan tanishish.

Qisqacha nazariy ma'lumotlar:

Fon qo'yish


Tayyorlamoqchi bo'lgan prezentastiyamizni qanchalik darajada kishi etiborini jalb qilishi uning foniga bog'liqdir. Fon o'rnatishda Power Point dasturining tayyor shablonlaridan ham foydalanish yoki o'zimiz tayyorlagan ixtiyoriy rasmni fon sifatida foydalanish mumkin. Power Point dasturining tayyor shablonlaridan

foydalanish uchun formatlash uskunalar panelida joylashgan  **Конструктор** slaydlar quruvchisi uskunasini tanlaymiz. Natijada topshiriqlar panelida **“Slayd dzayneri”** paydo bo'ladi. Biz esa **“Slayd dzayneri”** panelidan  **Шаблоны оформления** bo'limini tanlaymiz. Ko'p holda avtomatik tarzda shu bo'limning o'zi tanlangan holatda bo'ladi.  **Шаблоны оформления** ning pastki qismida turli xil ko'rinishda shablonlar joylashgan. Ulardan o'zimizga yoqqanini sichqoncha yordamida tanlab slayd uchun qo'llashimiz mumkin. Bundan tashqari  **Цветовые схемы** bo'limidan rangli sxemalardan fon sifatida foydalanishimiz mumkin.

Slaydlarga rasm va boshqa obyektlarni qo'yish.

Power Point dasturida ham MS Word dasturidagi kabi rasmlar bilan ishlash paneli mavjud. Ushbu panelda kartinkalar bilan ishlash oynasini chiqarish, fayldan rasm qo'yish, shakllar chizish va turli xil avtofiguralardan foydalanish kabi bo'limlari bor. **“Avtofiguri”** bo'limida MS Word jasturidikidan farqli ravishda **“Upravlyayuhie kpopki”** – ya'ni boshqaruvchi tugmalar qismi ham joylashgan. Ushbu bo'limdan biz o'zimiz kerakli bo'lgan boshqarish tugmalarini o'rnatishimiz mumkin. Boshqarish tugmalari deganda bir slaydan navbatdaxisiga o'tkazish yoki oxirgi slaydga o'tkazish uvbi ishlarni bajarish tugmalari tushuniladi. Bundan tashqari bu dasturda ham **“Vstavka”** menyusida **“Risunok”** bo'limi joylashgan.

Ovoz yoki filmlar o'rnatish


Biz odingi darslarimizda Power Point dasturining imkoniyatlari to'g'risida to'xtalganimizda prezentastiyalarga ovoz va filmlarni biriktirish mumkinligi xaqida to'xtalib o'tgan edik. Endi esa bevosita ovoz yoki filmlarni o'rnatish to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Buning uchun **“Vstavka”** menyusiga kiramiz va bu menyudan  **Фильмы и звук** bo'limini tanlaymiz. Natijada o'ng tomoniga yangi menyu ochiladi. Bu menyuda quyidagi bo'lim va buyruqlar joylashgan.


Фильм из коллекции картинок...	Kartinkalar kolleksiyaasidan film o'rnatish;
Фильм из файла...	Fayldan film o'rnatish;
Звук из коллекции картинок...	
Звук из файла...	
Запись с компакт-диска...	

	Kartinkalar kolleksiyasidan ovoz o`rnatish;
	Fayldan ovoz o`rnatish;
	Kompakt diskka ovoz yozish;
	Ovoz yozish


Misol tariqasida fayldan ovoz o`rnatishni ko`rib chiqaylik. Buning uchun **Звук из файла...** ni tanlaymiz. Natijada ovozli



fayllarni qidirib topish muloqot oynasi paydo bo`ladi. Ushbu oynadan biror bir ovozli faylni tanlab **“OK”** tugmasini bosamiz. Natijada so`rov muloqot oynasi paydo bo`ladi. Agar ushbu so`rov oynasidan **“Avtomaticheski”** tugmachasini tanlasak qo`yayotgan ovozli faylimiz namoyish boshlanishi bilan avtomatik tarzda ishlaydi. Agar **“Po shelchku”** tugmachasini tanlasak qo`ygan ovoz faylimiz sichqoncha yordamida ishga tushirmaguncha ishlamaydi. Sichqoncha yordamida ishga tushirish degani ovoz



znachogini  ustida sichqonchani chap tugmachasini bir marta bosamiz.

Animastiyalar kiritish

Biz oldingi darsimizda Power Point dasturida prezetastiyalarga soddda animastiyalar biriktirish mumkinli to`g`risida to`xtalib o`tgan edik. Endi sa ana shunday animastiyalarni matn yoki rasmlarga biriktirish yo`l yo`riqlari bilan tanishib chiqamiz. Animastiya kiritish uchun dastlab animayalar animastiyalar panelini ochib olish kerak. Buning uchun **“Pokaz slaydov”** menyusidan  **Эффекты анимации...** buyrug`ini




tanlash kerak. Ushbu buyruqni tanlashimiz bilan Power Point dasturining topshiriqlar paneli bo`limining ko`rinishi o`zgaradi. Ya`ni u erda animastiyali

effektlar ro`yxati paydo bo`ladi. Bu ro`yxatdan istagan ko`rinishdagi animastion effektlarni tanlashimiz mumkin. Eslatma sifatida shuni ta`kidlab o`tish mumkinki biror bir effektzni tanlashimiz bilan uning qanday ko`rinishdagi animastiya ekanligi darrov namoyish etiladi va belgilangan yoki aktiv slaydlar uchun qo`llaniladi. Animastiyalar ro`yratining pastki qismida joylashgan **“Primenit ko vsem slaydam”** tugmachasini bosish bilan tanlagan animastiyamizni

hamma slaydlar uchun qo`llashimiz mumkin. **“Prosmotr”** tugmachasini bosish

bilan yana bir bora slaydimizga kiritgan animastiyani ko`rishimiz mumkin. **“Pokaz slaydov”** tugmachasining vazifasi esa qilingan ishlarni namoyish etishdir. Ya`ni katta ekranda ko`rsatish. Tugmachani klaviaturada [**Shift**⌘**F5**] tugmachasi bajaradi. E`tibor beradigan bo`lsak oynaning pastki qismida joylashgan **“Avtoprosmotr”** bo`limiga belgi qo`yilgan holatda turibdi. Agar biz ushbu belgini olib qo`yadigan bo`lsak, animastiyani tanlashimiz bilan uning qanday animastiya ekanligi bizga namoyish etilmaydi.

Animastiyalarni sozlash



paneli
Ushbu

Animastiyalarni sozlash uchun **“Pokaz slaydov”** menyusidan

buyrug`ini tanlaymiz. Ushbu **“Nastroyka animastii”** buyrug`ini tanlashimiz bilan yana topshiriqlar oynasining ko`rinishi o`zgarib qoladi. panelning **“Dobavit effekt”** – effekt

qo`shish tugmasi orqali tanlagan slaydimizga yoki obyektimizga yangi animastiyali effekt biriktirishimiz mumkin bo`ladi. Ushbu tugmachani tanlashimiz bilan kontekst menyusi paydo bo`ladi. Ushbu kontekst menyudan animastiyalarni

kirishda (Vxod) yoki chiqishda qanday ko`rinishda bo`lishini belgilashimiz mumkin. Misol tariqasida kirishga animastiya qo`yishni ko`radigan bo`lsak **“Vxod”** tugmachasini tanlashimiz bilan yana yoniga yangi kontekst menyu ochiladi. Ushbu kontekst menyuning yuqori qismidan animastiyalarni


tanlashimiz mumkin. Bu edragilardan tashqari boshqa animastiya qo`ymoqchi bo`lsak **“Drugie effekti”** bo`limini tanlashimiz kerak bo`ladi. **“Drugie effekti”** bo`limini tanlashimiz bilan yangi effektlarni tanlash **“Dobavlenie effekta vxoda”** muloqot oynasi paydo bo`ladi. Paydo bo`lgan muloqot oynasidan qo`shimcha effektlardan o`zimizga yoqqanini tanlab

“OK” tugmachasini bosish bilan ishni yakunlaymiz. **“Vixod”** bo`limidan ham chiqish uchun animastiyalarni shu tartibda bajarishimiz mumkin.



“Udalit” – o`chirish bo`limidan esa qo`yilgan animastiyalarni o`chirib tashlashimiz mumkin.

“Nachalo” – boshlash bo`limidan qo`yilgan effektlarni namoyish vaqtida qay vaziyatni boshlanishini belgilashimiz mumkin. Ya`ni agar hohlasak har bir effektни boshlash uchun klaviaturadagi yo`naltiruvchi tugmachalar yoki sichqonchani tugmachasini bosib turib o`tkazishga sozlashimiz mumkin. Buning uchun **“Nachalo”** bo`limidan

По щелчку holatini tanlashimiz kerak bo`ladi. Agar effektlarni birin ketin



автоматик tarzda namoyish etilishini hohlasak **С предыдущим** holatini tanlashimiz kerak bo`ladi. Effektlarni ma`lum vaqt oralig`ida chiqishini


ta`minlamoqchi bo`lsak  Прямоугольник... holatini tanlashimiz kerak. Effektlarni boshqa hossalarni (oraliq vaqt va boshq.) o`rnatish uchun  Прямоугольник... ustiga kelib sichqonchani o`ng tugmachasini bir marta bosamiz. Natijada kontekst menyusu hosil bo`ladi. Hosil bo`lgan kontekst menyudan **Параметры эффектов...** bo`limini tanlaymiz. Natijada effektlarni qo`shimcha hossalarni o`rnatish muloqot oynasi paydo bo`ladi. Muloqot oynasi uchta zakladkadan iborat bo`lib, ular effekt, vremya va animatsiya teksta. **“Effekt”** zakladkasidan animatsiyalarni qo`shimcha parametrlari o`rgatiladi. Masalan ovoz qo`shish yoki animatsiyadan keyingi holatni belgilash mumkin. **“Vremya”** zakladkasidan esa animatsiyalar oralig`idagi vaqtlarni sozlash imkoniyatiga ega bo`lamiz. **“Animatsiya teksta”** zakladkasidan esa matnlarni effektlarini belgilashimiz mumkin. Masalan hamma matnlarni bitta obyekt ko`rinishida belgilash yoki alohida abzastlar ko`rinishida belgilash kabi.

“Poryadok” tartiblash bo`limidan obyektlarni animatsiya paytidagi navbatini o`zgartirishimiz mumkin.


“Prosmotr” tugmachasini tanlash orqali slaydga qo`yilgan effektlarni yana bir bora ko`rish, tekshirish imkoniyati bor.

“Pokaz slaydov” tugmachasini bosish bilan aktiv slaydni namoyish etib ko`rish mumkin. Bu ishni klaviatura orqali **[Shift+F5]** tugmachalari kombinatsiyalaridan foydalanib ham amalga oshirishimiz mumkin.


POWER POINT dasturida yangi slayd ochish uchun quyidagi amallar bajariladi: «Главная» menyusiga kirib, «Создать слайд» buyrug`i bosiladi.




«Слайды» oynasida keying slayd ochiladi. Ya`ni




Shu tariqa keying yangi slaydlar qo'shiladi.
POWER ROINT dasturida slaydning orqa foniga rasm qo'yish uchun «Вставка» menyusiga kirib, «Рисунок» buyrug'i bosiladi.




«Вставка рисунков» oynasi ochiladi. Bu yerda kerakli rasm joylashgan papka ochilib, **6** quyuoqchi bo'lgan rasm ustiga sichqoncha olib borilib chap tugmasi bosiladi **7** va «Вставить» buyrug'i **8** tanlanadi.




Quyilgan rasmni shaklini o'zgartirish uchun «Формат» menyusi tanlanib tanlanadi va rasm tanlangan shaklga kiradi.




Ya'ni quyidagi hosil bo'ladi:



Slaydga yozilgan matnlar va quyilgan rasmlarga animatsiya qo'yish uchun dastlab animatsiya qo'yiladigan matn yoki rasm belgilab **11** olinadi so'ngra «АНИМАЦИЯ» **12** menyusi tanlanadi




«АНИМАЦИЯ» menyusidan «Добавить анимацию» buyrug'i **14** tanlanadi.




Bu yerdan kirish va chiqish effektlari tanlanadi.

Masalan, kirish (Добавление эффекты входа) oynasidan kerakli effektlarni (oddiy, o'rta, murakkab) tanlashimiz mumkin




Joriy slaydni namoyish qilish uchun «Показ слайдов» **17** tugmasiga bosiladi yoki klaviatradan F5 klavishi bosiladi.


POWER POINT dasturida ovoz yozish va tovushlar qo'yish uchun «Вставка» menyusidan «Звук» tugmasi tanlanadi.



Slydga ovoz yozish uchun «Звук» tugmasidan «Записать звук» buyrug'i tanlanadi.



Микрофон ulanadi va «Звукозапись» oynasidan bosiladi.



Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari.

Berilgan nazariy ma'lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma-ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

Topshiriqlar variantlari (masala, misol, keyslar).

1. 1 – Amaliy mashg'ulot bo'yicha taqdimot tayyorlang.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun raqamlarni o'rgatuvchi taqdimot tayyorlang.
3. Zamonaviy axborot texnologiyalar haqida taqdimot tayyorlang.
4. Kompyuterning yaratilish tarixi mavzusida taqdimot tayyorlang.
5. Kompyuterning ichki qurilmalari haqida taqdimot tayyorlang.
6. Kompyuterning tashqi asosiy va qo'shimcha qurilmalari haqida taqdimot tayyorlang.
7. Taqdimot varoqlari bir – biri bilan gipersilka orqali bog'kangan taqdimot tayyorlang.
8. Erkin mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlang va uni video ko'rinishida saqlng va izoxlab bering.

Nazorat savollari.

1. Power Point dasturi imkoniyatlari haqida gapirib berin.
2. Microsoft office 2016 ilova dasturi Power Point ning Главная menyusidagi piktogrammalar haqida ma'lumot bering.
3. Microsoft office 2016 ilova dasturi Power Point ning Вставка menyusidagi piktogrammalar haqida ma'lumot bering.
4. Microsoft office 2016 ilova dasturi Power Point ning Дизайн menyusidagi piktogrammalar haqida ma'lumot bering.
5. Microsoft office 2016 ilova dasturi Power Point ning Анимация menyusidagi piktogrammalar haqida ma'lumot bering.
6. Microsoft office 2016 ilova dasturi Power Point ning Слайд – шоу menyusidagi piktogrammalar haqida ma'lumot bering.
7. Microsoft office 2016 ilova dasturi Power Point ning ishchi maydoniga ixtiyoriy obyekt qo'yilganda Формат menyusi paydo bo'ladi ushbu menyudagi piktogrammalar haqida ma'lumot bering.
8. Microsoft office 2016 ilova dasturi Power Point da rasmlar bilan qanday ishlash kerakligi haqida ma'lumot bering.